

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№9

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025 sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
74 sahifa, sentyabr, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish	12
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	19
Usmonov Abbos Valijon o'g'li	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises	23
Sheraliev Axror Sodiqovich	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish	30
Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlari va huquqiy asoslari	37
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi	42
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari	46
Kurbonova Raxima Jamshedovna	
Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakatlarning milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati	49
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar	54
Marufhanov Davron Xasanovich	
Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка	58
Юсуфов Асфандиёр Элдор угли	
Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari	63
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiyasi	67
Kurbanov Jaloladdin Yuldashbayevich	



OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA DAROMADLAR VA XARAJATLARNI SHAKLLANTIRISH KONSEPSIYASI

Kurbanov Jaloladdin Yuldashbayevich

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.
Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi bosh mutaxasisi

Annotatsiya: Ushbu konsepsiya oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish jarayonlarini tizimli va samarali tashkil etishga qaratilgan. Hujjatda oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini ta'minlash, davlat budjeti hamda budjetdan tashqari mablag'lardan foydalanishni muvofiqlashtirish asoslari ko'rib chiqiladi. Konsepsiyada daromadlar manbalari, jumladan o'qitishning to'lov-kontrakt shakli, rivojlantirish jamg'armasi va boshqa budjetdan tashqari mablag'lar tahlil qilinadi. Shuningdek, xarajatlarni rejalashtirish va nazorat qilish mexanizmlari ta'kidlanadi, bu oliy ta'lim muassasalarining samarali faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy hisobotlarni yuritish, daromad va xarajatlarning hisobga olinishi hamda ularning o'zaro muvofiqligi ta'lim sifatini oshirish va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi. Konsepsiyada zamonaviy moliyaviy boshqaruv usullari va budjetdan tashqari mablag'lar bilan ishlash tartiblari haqida ma'lumot berilgan. Hujjatda shuningdek, moliyaviy barqarorlikni oshirish uchun takliflar keltirilgan bo'lib, ular oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu konsepsiya ta'lim muassasalari rahbarlari, moliyachilar, hamda davlat moliya organlari uchun qo'llanma bo'lib, oliy ta'lim sohasida moliyaviy boshqaruvni takomillashtirishga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim tashkiloti, xarajatlar smetasi, daromadlar, moliyaviy resurslar, moliyaviy mexanizm, innovatsion texnologiya, xarajatlar, budjet xarajatlari, budjet tizimi.

Abstract: This concept is aimed at systematically and efficiently organizing the processes of revenue and expenditure formation in higher education institutions. The document reviews the foundations of ensuring the financial independence of higher education institutions and coordinating the use of state budget and extra-budgetary funds. The concept analyzes sources of income, including tuition fees, development funds, and other extra-budgetary resources. It also emphasizes the mechanisms of planning and controlling expenditures, which are crucial for the effective operation of higher education institutions. Maintaining financial reporting, recording revenues and expenses, and ensuring their consistency contribute to improving the quality of education and the rational use of resources. The concept provides information about modern financial management methods and procedures for working with extra-budgetary funds. Additionally, it presents proposals aimed at increasing financial stability, thereby enhancing the economic efficiency of higher education institutions. This concept serves as a guide for university administrators, financiers, and state financial authorities, directed at improving financial management in the higher education sector.

Keywords: Higher education institution, expenditure estimate, revenues, financial resources, financial mechanism, innovative technology, costs, budget expenditures, budget system.

Аннотация: Данная концепция направлена на системную и эффективную организацию процессов формирования доходов и расходов в организациях высшего образования. В документе рассматриваются основы обеспечения финансовой самостоятельности вузов, а также координация использования государственных и внебюджетных средств. В концепции анализируются источники доходов, включая контрактную форму обучения, фонд развития и другие внебюджетные ресурсы. Отдельное внимание уделяется механизмам планирования и контроля расходов, что имеет важное значение для эффективной деятельности вузов. Ведение финансовой отчетности, учет доходов и расходов и их согласованность способствуют повышению качества образования и рациональному использованию ресурсов. В концепции представлены сведения о современных методах финансового управления и порядке работы с внебюджетными средствами. Кроме того, приведены предложения по повышению финансовой устойчивости, направленные на рост экономической эффективности высших учебных заведений. Концепция служит практическим пособием для руководителей вузов, финансистов и государственных финансовых органов, ориентированным на совершенствование финансового управления в сфере высшего образования.

Ключевые слова: организация высшего образования, смета расходов, доходы, финансовые ресурсы, финансовый механизм, инновационная технология, расходы, бюджетные расходы, бюджетная система.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar ta'lim sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan. Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, zamonaviy bilim va innovatsion texnologiyalarga asoslangan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida oliy ta'lim tashkilotlarining roli tobora ortib bormoqda. Shu munosabat bilan, ularning moliyaviy resurslarini shakllantirish va boshqarish masalalari bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda. An'anaviy davlat budjeti hisobidan moliyalashtirish modeli hozirgi bosqichda oliy ta'lim muassasalarining ehtiyojlarini to'liq qamrab olmayapti. Ta'lim muassasalari oldida o'z faoliyatini kengaytirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirish, infratuzilmani rivojlantirish, professor-o'qituvchilar va talabalar uchun zamonaviy sharoitlar yaratish, xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallash kabi vazifalar turibdi. Bu esa muassasalarning o'z daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, ichki moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish va xarajatlarni samarali rejalashtirishga bo'lgan ehtiyojini kuchaytirmoqda.

Muayyan yechim sifatida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.12.2021 yildagi PQ-61-son: "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorni imzoladi. Ushbu qaror asosida 2022-yil 1-yanvardan boshlab 35 ta yetakchi davlat oliy ta'lim muassasasiga moliyaviy mustaqillik berildi. Qarorga ko'ra, muassasalarga quyidagilar bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolati taqdim etildi: to'lov-kontrakt qiymatini va to'lov muddatlarini belgilash, mahalliy va xorijiy professor-o'qituvchilarni shartnoma asosida jalb etish, talabalar uchun stipendiya va grantlar ajratish, xorijiy o'quv va ilmiy adabiyotlarni bevosita sotib olish, bo'sh inshootlarda pullik xizmatlar ko'rsatish tartibini belgilash.¹

Bundan tashqari, qarorda oliy ta'lim muassasalarida ichki audit va moliyaviy nazoratni kuchaytirish, budjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armalarini shakllantirish, moliyaviy jarayonlarni elektron tizim orqali yuritish mexanizmlarini joriy etish choralari belgilangan. Mazkur qaror oliy ta'lim muassasalarini o'z resurslarini samarali boshqarishga, strategik rivojlanish yo'nalishlarini mustaqil belgilashga va xalqaro standartlarga muvofiq modernizatsiyaga erishishga mustahkam asos yaratmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish bo'yicha aniq va samarali konsepsiyani ishlab chiqish ularning barqaror moliyaviy boshqaruvini ta'minlash uchun muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Bunday yondashuv nafaqat moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi, balki ta'lim sifatini oshirish va innovatsion faoliyatni kengaytirishga ham xizmat qiladi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari moliyalashtirishda davlat budjeti mablag'lari bilan bir qatorda budjetdan tashqari manbalarga ham tayanmoqda. Shu boisdan, moliyaviy resurslarni rejalashtirish, hisobga olish va nazorat qilish bo'yicha shaffof, ochiq hamda tizimli mexanizmlarni yaratish zarurati keskin ortib bormoqda.

Metodologiyaning ilmiy asosi sifatida tizimli yondashuv, funksional tahlil va taqqoslash usullari qo'llaniladi. Daromadlar va xarajatlarni shakllantirish mexanizmlari iqtisodiy nazariya tamoyillari, davlat moliya siyosati hamda ta'lim sohasining o'ziga xos jihatlarni uyg'unlashtirgan holda o'rganiladi.

Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiyasi moliyalashtirishning turli manbalariga asoslanadi: davlat budjeti, rivojlantirish jamg'armalari, to'lov-kontrakt shaklidagi ta'limdan tushadigan mablag'lar, grant va homiylik mablag'lari hamda boshqa budjetdan tashqari daromadlar. Tadqiqot jarayonida ularning samaradorligi ko'rsatkichlari, resurslarni taqsimlash mexanizmlari va risklarni boshqarish usullari tahlil qilinadi.

Metodologiyada alohida e'tibor tizimli budjetlashtirish, aniq moliyaviy hisobot yuritish, ichki audit tizimini kuchaytirish va resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan. Shu bilan birga, iqtisodiy-matematik modellashtirish va statistik tahlil usullaridan foydalanish oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy holatini chuqur o'rganish va prognozlash imkonini beradi.

Mazkur yondashuv oliy ta'lim tashkilotlariga moliyaviy faoliyatini optimallashtirish, davlat budjetiga qaramlikni kamaytirish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va moliyaviy mustaqillikni rivojlantirish imkonini beradi. Natijada, ta'lim sifatini oshirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini kengaytirish va xalqaro reytinglarda oliy ta'lim muassasalarining mavqeini mustahkamlash kabi strategik maqsadlarga erishish uchun ilmiy asoslangan moliyaviy boshqaruv mexanizmlari shakllanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini amalga oshirishda zarur mablag'lar bilan ta'minlash eng muhim shart hisoblanib, buning uchun ushbu sarflar har bir xarajat elementlari, moddalari va guruhlar bo'yicha

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.12.2021 yildagi PQ-61-son. <https://lex.uz/uz/docs/-5793251>



rejalashtiriladi. Xarajatlarning rejasi bilan bog'liqlikda ularni moliyalashtirish yoki pul mablag'lari bilan ta'minlash uchun daromadlar manbai aniqlashtiriladi, daromadlarga bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar, stavkalar, parametrlar belgilab olinadi. Ushbu jarayonda xarajatlar bilan bog'liq reja markaziy o'rinda bo'lishi tabiiy holatdir. Oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatida xarajatlarning rejasi va daromadlarning prognozlarini ular bilan bog'liqlikda tuziladigan smetalarda o'z aksini topadi. Oliy ta'lim tashkilotlarini budjetdan mablag' bilan ta'minlash bog'liq holda xarajatlar smetasi shakllantiriladigan bo'lsa, budjetdan tashqari mablag'larga oid daromadlar va xarajatlar smetalari shakllantiriladi hamda ularning ijrosi ta'minlanadi, ijrosi uzluksiz ravishda hisobga olib borilib, ularga oid hisobot shakllari shakllantiriladi.

Xarajatlar smetasi oliy ta'lim tashkilotlarini saqlash, xo'jalik va qurilish yuzasidan markazlashtirilgan holdagi tadbirlarni bajarishga budjetdan yo'naltiriladigan mablag'larning miqdorini, maqsadli yo'nalishlarini choraklar yuzasidan taqsimotini belgilab beruvchi asosiy reja hujjati sanaladi. U Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan belgilangan namunaviy normativ hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish rejasi asosida tuziladi. «Oliy ta'lim tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalarini tuzish - xarajatlar smetalari oliy ta'lim tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar tomonidan, yil oylari bo'yicha taqsimlangan holda: xarajatlarning birinchi - uchinchi guruhlar bo'yicha xarajatlarning moddalariga ko'ra ajratib; xarajatlarning to'rtinchi guruhi bo'yicha xarajatlarning moddalariga ko'ra ajratmasdan tuziladi».

Xarajatlar smetasi tarkibiga xarajatlarning moddalarini yuzasidan 4-guruh xarajatlari yoyilmalari, shu bilan birga, davlatning ehtiyojlariga kerakli muxim holda kichik tadbirkorlardan xarid qilib olinadigan tovar (ishl, xizmat) larning ro'yxatiga oid xarajatlar yoyilmasi ilova qilinadi. Mamlakatning chet eldagi har bir diplomatik idorasi yuzasidan xarajatlar smetalari mamlakatning chet eldagi idoralarining O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan tarzda yillik yig'ma xarajatlar smetalariga muvofiq chet el hamda milliy pul birligida tuziladi. «Budjet tashkilotlarining va budjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalari ikki nusxada, Budjet mablag'larini taqsimlaydigan tasarrufidagi budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilar bo'yicha uch nusxada tuziladi». Moliya idoralari hamda budjetning mablag'larini taqsimlaydigan oliy ta'lim tashkilotlari hamda budjetning mablag'larini oluvchilar xarajatlar smetalariga tegishli asoslangan hisob-kitoblarni olishga haqqi bor.

Budjet mablag'larini taqsimlaydigan o'z tarkibidagi tashkilotlardan olingan xarajatlar smetalarini moliya yiliga budjet mablag'larini taqsimlaydigan budjetdan beriladigan mablag'lar miqdori doirasida ko'rib chiqadi, budjet mablag'larini taqsimlaydigan Iqtisodiyot va moliya vazirligiga berib boriladigan yig'ma xarajatlar smetasini shakllantiradi. Xarajatlar smetasi, yig'ma xarajatlar smetalarining va ularga aloqador ilovalarning shakli, ularni shakllantirish qoidalarni O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi belgilaydi va tasdiqlaydi. O'zning tarkibidagi oliy ta'lim tashkilotlari smetalarini jamlashtirgan xarajatlar smetasi vazirlik hamda idoralarning boshqarma va bo'limi yuzasidan smetalarni ko'rib chiqqanidan so'ng «O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi, vazirliklari, idoralari, hokimiyatlarning boshqarmalari hamda bo'limlari, Davlat budjeti xarajatlari tasnifiga muvofiq, tegishli budjet bo'yicha boblari, paragraflari, ob'ektlari va kichik ob'ektlari bo'yicha xarajatlarning umumlashtirilgan umumiy smetasini tuzadilar, xarajatlarni amalga oshirish muddati va mavsumiyiligiga qarab umumlashtirilgan» smeta xarajatlarni har bir paragrafi, ob'ektlar turi hamda kichik ob'ektlar bo'yicha yilning choraklari bo'yicha taqsimotini belgilaydilar.

«Budjet tashkilotining yoki budjet mablag'lari oluvchining so'roviga ko'ra moliya yilida uning uchun nazarda tutilgan xarajatlarning ayrim moddalar bo'yicha budjetdan beriladigan mablag'larning hajmlari xarajatlarning boshqa moddalar bo'yicha budjetdan beriladigan mablag'lar teng miqdorda kamaytirilgan hamda budjet tashkiloti yoki budjet mablag'lari oluvchi uchun nazarda tutilgan budjetdan beriladigan mablag'larning tasdiqlangan umumiy hajmi saqlab qolgan holda ko'paytirilishi mumkin». Shu kabi o'zgartishlarni kiritish amaliyoti oliy ta'lim muassasalari hamda budjet mablag'larini qabul qiluvchi tashkilotlar tomonidan xarajatlar smetasiga bir yil mobaynida kamida to'rt marta amalga oshirilishi mumkin. Bu jarayon quyidagi subektlar tomonidan tegishli amalga oshiriladi: Respublika budjeti hisobidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari benefitsiarlari bo'yicha tegishli budjet mablag'larini taqsimlovchi organlar tomonidan; Budjet mablag'larini taqsimlovchi organlarning o'zlari yuzasidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan; Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar budjetlari orqali moliyalashtiriladigan tashkilotlar va mablag'lar oluvchilar bo'yicha tegishli mahalliy hokimiyatlar huzuridagi iqtisodiyot va moliya boshqarmalari tomonidan; Tuman va shahar budjetlari hisobidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari va ularning mablag'larini qabul qiluvchilar yuzasidan mos ravishda tuman yoki shahar hokimliklarining iqtisodiyot va moliya bo'limlari tomonidan; Davlat maqsadli jamg'armalari hisobidan moliyalashtiriladigan budjet mablag'lari benefitsiarlari bo'yicha ushbu jamg'armalar mablag'larini taqsimlovchi idoralar tomonidan ro'yxatga olinadi.

Oliy ta'lim tashkilotlari xarajatlar smetasi tarkibiga qilinadigan tuzatishlar hisobga qilinayotganda oliy ta'lim tashkilotlarida ishlaydigan ayollarga dekret nafaqasi to'lash maqsadida oliy ta'lim tashkilotining tasdiqlangan xarajatlar smetasiga asosan budjetdan beriladigan mablag'larni biror modda hisobidan boshqa moddaga ko'paytirish yoki kamaytirishni belgilashni hisobda tutuvchi tuzatishlar hisobga olinmaydi. Qonuniy hujjatlarga



asosan ish haqining oshirib borilishi boisidan budget tashkilotining shtat jadvaliga qilinadigan tuzatishlar moliya organi tomonidan hisobga olinmaydi.

1-jadval. “Smeta” termining turli manbalarda ochib berilishi

№	Manba	Aniqlanishlar
1	Артемова Л.В.	Сmeta-tashkilot, firma xarajatlarini moliyalashti- rish uchun pul mablag'larining tushumi va xarajatlari rejasi. Farq qiladi: sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish xarajatlari smetasi (xarajat elementlari bo'yicha); pudrat qurilish tashkilotlarining xarajatlar smetasi (qurilish ishlab chiqarishi va pudrat faoliyatining xususiyatlarini hisobga olib xarajat elementlari bo'yicha).
2	Borisov A.V.	Smeta – kelgusidagi xarajat va daromadlarni hisobga oluvchi hujjat, pul mablag'lari xarajatlari va tushumini buxgalteriya rejasida aks ettirish, korxonada, tashkilot xo'jalik faoliyatini moliyalashtirishda foydalaniladigan hujjat. Ayrim hollarda ishlab chiqarish, qurilish ob'ektlari xarajatlarining alohida smetasi tuziladi. Smeta moliyaviy rejaning oddiy formasi hisoblanadi.
4	Starodubtseva Ye.	Smeta - Moliyaviy (pul birligida ifodalangan) reja, kelgusidagi operatsiyalarning natijalarini baholash uchun foydalaniladi, bu termin boshqaruv hisobida keng foydalaniladi, ichki firma xarajatlarini rejalashtirish, kompaniya hamma bo'limlarini o'z ichiga oladigan va funktsional sohasi ayrim smeta tuzish va natijada yakuniy «bosh smetani» tuzishdan iborat.
5	Azriliyan A.N.	Budget tashkilotining smetasi – asosiy reja hujjati bo'lib, davlat budgetidan noishlab chiqarish sohasi tashkilotlarini moliyalashtirish uchun asos bo'luvchi hujjat. Budgetdan mablag' ajratilishini kvartallar bo'yicha taqsimlash va maqsadli yo'nalishi va hajmini aniqlashdan iborat.
6	Lozovskiy L.Sh.	Smeta o'zgaruvchan – kutilayotgan xarajatlar smetasi, ishlab chiqarish hajmining turli darajasiga qarab hisob-kitoblar asosida tayyorlanadi (yoki shunday holatlarga mo'ljallanadi).
7	Saxartseva I.I.	Budget tashkilotlari smetasi asosiy reja hujjati hisoblanadi, olinadigan daromadni tasdiqlaydigan va xarajatlarni amalga oshirishga ruxsat beradigan, mablag'larning yo'nalishi va hajmini aniqlaydigan, yil davomida o'z funktsiyasini va maqsadini amalga oshiradigan va budgetni amalga oshiradi
8	Ostonakulov M.	Xarajatlar smetasi asosiy reja hujjati hisoblanib, tashkilotni saqlash uchun budgetdan beriladigan kvartallar bo'yicha taqsimlanadigan xarajatlar va maqsadli yo'nalishli, hajmni aniqlaydigan hujjatdir
9	Xasanov B.A.	Xarajatlar smetasi – ishlab chiqarish jarayonlari- ning turli darajasi bo'yicha hisoblar asosida tayyorlangan, kutilayotgan xarajatlar tahlili asosida tuziladigan, bu kutilayotgan xarajatlar smetasidir

Oliy ta'lim tashkilotlarida asosiy moliyaviy hujjat xarajatlar smetasi hisoblanadi, uning asosida oliy ta'lim tashkilotlari xarajatlarni amalga oshirish huquqiga ega. «Smeta» termini tushunchasini turli manbalar asosida ochib beramiz, ushbu holatni quyidagi rasm ma'lumotlarida keltiriladigan mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy talqinlari misolida ko'rib chiqamiz (1-jadval).

Mazkur ko'rib chiqilgan holatlarda bir hujjat turli nomlanib yuritilmoqda, ushbu xujjat turli holatlardan kelib chiqqan va maqsad ushbu holatlarni aniqlashdir.

2-jadval. Davlat budgetidan xarajatlarni moliyalashtirish guruhi

№	Smeta guruhlarining moddalari	Nomi
1	01-100, 03-410, 03-4-20, 03-4-25, 03-4-40	Ish haqi va unga tenglashtirilgan (bolali oilalarga nafaqa ta'minlanganlarga moddiy yordam, va boshqalar) to'lovlar va stipendiya
2	10-2-00	Ish haqidan ajratmalar
3	1132	Kapital qo'yilmalar (Dasturida ko'zda tutilgan bo'yicha) davlat investitsion va adres ro'yxati
4	01-3-00,10-4-00,01-5-00,01-6-00,01-7-00,01-8-00,01-9-00,03-1-00,03-3-00,03-4-45,03-4-90,03-5-00,04-1-00,04-4-00,04-5-00,06-0-00,07-1-00,07-2-00,07-3-00,08-1-00,08-2-00,08-3-00,09-1-00,09-2-00,10-0-00	Boshqa xarajatlar



Ushbu aniqlashni tinglovchilar hukmiga havola qilib, ularning fikrini bilish maqsadga muvofiqdir. Chunki, ularning ayrimlari xato bo'lishi yoki ma'lum holatdan kelib chiqib to'g'ri bo'lishi mumkin. Xozirgi kunda bunday hujjat shartnoma, smeta va boshqa nomlarda yuritilishi mumkin. Oliy ta'lim tashkilotlarida smeta asosiy hujjat hisoblanadi, maqsadli tushumlar, hajmini aniqlashi va mablag'lardan foydalanishi, yil davomida tashkilotni asrash uchun mablag' ajratilishi mumkin. Smetaning ajralmas qismi mablag' ajratish rejasi bo'lib, uni kvartallar bo'yicha taqsimlab yillik summa ham ko'rsatiladi. Smetadan farqli ravishda, budjetdan maqsadli pul ajratishda xarajatlar iqtisodiy klassifikatsiyasi bo'yicha turkumlanadi, ushbu holatni quyida keltiriladigan davlat budjetidan xarajatlarni moliyalashtirish guruhi nomli jadval ma'lumotlarida ko'rishimiz mumkin (2-jadval). O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan mablag' ajratish smetasi va rejasining shakllari tasdiqlanadi. Iqtisodiy adabiyotlar hamda normativ-huquqiy hujjatlarga ko'ra smeta quyidagicha guruhlanadi: Individual; yig'ma; markazlashgan tadbirlar smetasi. Budjet klassifikatsiyasi daromad va xarajatlarning yagona sistematik guruhlashtirish tartibini belgilaydi (shu jumladan, kreditlash qoplashni hisobga olgan holda) hamda iqtisodiy mohiyati, funksional faoliyati, tashkiliy tuzilmasi va boshqa belgilari bo'yicha budjetdan moliyalashtirishni bildiradi. Xarajatlar iqtisodiy klassifikatsiyasi iqtisodiy belgilari bo'yicha xarajatlarni bir-biridan farqlash va ularning predmetlari bo'yicha batafsil taqsimlanishi aks ettiriladi.

Davlat oliy ta'lim tashkilotlarining samarali faoliyat yuritishi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ichki audit muhim ahamiyatga ega. Ichki audit jarayoni tashkilotning moliyaviy va operatsion faoliyatini baholash, mavjud xatoliklarni aniqlash hamda moliyaviy va boshqaruv jarayonlarini yaxshilash uchun muhim vositadir. Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarning ko'payishi va boshqaruv jarayonlarining murakkablashuvi ichki auditni tizimli va rejalashtirilgan shaklda olib borishni taqozo etadi. Shu bois, ichki auditning aniq va puxta ishlab chiqilgan rejasi tashkilot faoliyatining shaffofligini oshirish va moliyaviy intizomni mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi. Davlat ta'lim tashkilotlarida ichki audit tadbirlarini o'tkazishning individual rejasi tashkilotda ichki audit nazoratini o'tkazishning barcha jihatlarini qamrab olishi zurrur (3-jadval).

3-jadval. Davlat oliy ta'lim tashkilotlarida ichki auditning rejasi

Tashkilot	
Ichki audit tekshiruvi davri	
Tayyorlagan mas'ul xodim / sana	
Ko'rib chiqqan xodim / sana	
Tashkilot haqida ma'lumotlar	
E'tiborga olinishi zarur bo'lgan jabxalar: Moliyaviy ma'lumotlar (budjet, yillik hisoblar) va natijalar; Xodimlar soni (xodimlar ro'yxati) Tashkilot tuzilmasi, asosiy vazifalar, vakolatli bo'limlar; Vazirlik va idoralar maqsadlarga muvofiq tashkilotning strategik rejalari, siyosati, ko'rsatmalari va faoliyati; Asosiy shartnomalar; Kompyuterlashtirilganlik darajasi, IT savodxonligi; Oxirgi ichki audit tekshiruvidan keyingi mavjud muhim o'zgarishlar; Avvalgi ichki audit tekshiruvi natijalari va ularning joriy qo'llanish holati; Firibgarlik/boshqa nomuvofiqliklarga nisbatan ta'sirchanlik; Tashqi moliyalashtirish shartnomalari (homiy/boshqa nodavlat manbalar) Amaldagi qonun va qoidalar	
Riskni baholash (riskni baholash ishchi hujjatlaridan foydalangan holda)	
Tabiiy riskni baholash Nazorat riskni baholash	
Ichki audit tekshiruvi o'tkazilishi kerak bo'lgan sohalar (aniqlangan har bir soha bo'yicha)	
Alohida soha bo'yicha tabiiy risklar Alohida soha bo'yicha nazorat risklari Asosiy nazorat usullari Alohida soha bo'yicha nazorat riskining bahosi	
Ichki audit tekshiruvi dasturi (ichki audit tekshiruvi o'tkaziladigan har bir soha uchun)	
Audit maqsadlari Audit jarayonlari Tekshiruv ko'lami (vositalar miqdori)	
Tekshiruv xodimlari va ish jadvali	
Xodimlar rejasi (tekshiruv guruhining har bir a'zosi uchun mo'ljallangan ish hajmi) Ichki audit tekshiruvini yakunlash uchun zarur bo'ladigan ishchi kuchi kunlari xisobi Ichki audit tekshiruvining har bir bosqichi va olib boriladigan ishlari uchun taklif qilingan jadval	

Ichki audit dasturi ichki audit tekshiruvini o'tkaziladigan soha, audit maqsadlari, audit jarayonlari, tekshirish ko'lamini va tanlov o'tkazish kabilarni o'z ichiga oladi. Davlat oliy ta'lim tashkilotlarida ichki audit rejasi tashkilotning moliyaviy va operatsion faoliyatini tizimli ravishda tekshirish va nazorat qilishga imkon beradi. Reja asosida olib boriladigan audit jarayoni xatolik va kamchiliklarni aniqlash, resurslarning samarali ishlatilishini ta'minlash hamda boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ichki audit natijalari asosida tashkilot rahbariyati o'z faoliyatini yaxshilash bo'yicha zarur chora-tadbirlarni ko'radi. Shu bilan birga, ichki audit rejasi oliy ta'lim muassasasining moliyaviy barqarorligini oshirish va moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish biznes-reja va strategik maqsadlarni aniq tuzish, moliyaviy-xo'jalik faoliyatini samarali boshqarish, resurslarning to'g'ri taqsimlanishi va maqsadli ishlatilishi, mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish bevosita ishonchli, tezkor va tizimlashtirilgan buxgalteriya axborotlariga tayangan holda qabul qilingan qarorlarga bog'liqdir. Shuningdek, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda buxgalteriya axborotlarining ishonchligini ta'minlash, mavjud resurslardan foydalanish holati, faoliyat samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash esa, ichki audit tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish orqali ta'minlanadi. Ushbu jihatlar o'za navbatida oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar, xarajatlar hisobi va ichki auditning nazariy, amaliy va uslubiy asoslarini takomillashtirib borishni talab qiladi. Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida hamda mamlakatimizda ham oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishda aralash tizim ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Shu boisdan, oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishda budjet mablag'lariga parallel tarzda budjetdan tashqari mablag'lar, ya'ni o'qitishning to'lov-kontrakt shaklidan olingan mablag'lar, rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari va boshqa budjetdan tashqari mablag'lar shakllantirish tartibi qo'llanilmoqda. Ushbu tartib bir vaqtning o'zida budjet yukini kamaytirsa, ikkinchi tomondan bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lim xizmatlarini ko'rsatishda raqobat muhitini ham vujudga keltiradi. Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlashda nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatiga ruxsat berilishi barobarida yetakchi oliy ta'lim tashkilotlarining imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda moliyaviy qarorlarni qabul qilishda mustaqillikning berilishi oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda hozirgi davr talablariga mos qadrlarni tayyorlash o'ziga xos jihatlarni keltirib chiqarmoqda. Shuningdek, davlat oliy ta'lim tashkilotlarida kredit modul tizimining joriy etilishi ta'lim xizmatlarini ko'rsatishda alohida yo'nalishlarni vujudga keltiradi.

Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni samarali shakllantirish tizimi ta'lim muassasalarining barqarorligini ta'minlash, sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish va ularning raqobatbardoshligini oshirish uchun muhimdir. Davlat budjeti bilan bir qatorda, budjetdan tashqari mablag'lar manbalarini kengaytirish va ularni samarali boshqarish oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, daromad va xarajatlarning aniq rejalashtirilishi, nazorat qilinishi va hisobot berilishi ta'lim sifatini yaxshilash va resurslarni oqilona taqsimlash imkonini beradi. Shu boisdan, oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish, shuningdek, zamonaviy moliyaviy nazorat mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdurahmonov I.V. Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligi: nazariya va amaliyot. Toshkent: Ilm, 2022. — 256 b.
2. Johns J.B., Margo A. Diversification of Revenue Sources in Higher Education Institutions: U.S. Experience. *Journal of Educational Finance*, 2018, Vol. 44, No. 3, pp. 245-270.
3. Qilichev X.N. Bozor mexanizmlari asosida Oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash. — Toshkent: Fan va Texnologiya, 2021. 198 b.
4. OECD. *Financing Higher Education: Policy Innovations and Trends*. OECD Publishing, 2020. 350 p.
5. UNESCO. *Higher Education Financing and Sustainability: Global Trends and Perspectives*. UNESCO Publishing, 2021. 180 p.
6. Vazirlar Mahkamasi Qarori №5117. Oliy ta'lim tashkilotlarining moliyaviy faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida. Toshkent, 2023.
7. Erasmus Programma Hisoboti. *Innovations in Higher Education Financing*. European Commission, 2022.
8. Karimov M. Ta'lim sohasida budjetlashtirishning zamonaviy mexanizmlari. — Toshkent: Iqtisodiyot va Boshqaruv, 2020. 134 b.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100